

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«IJTIMOIY-IQTISODIY» FAKULTETI

«IQTISODIYOT» KAFEDRASI

5140900- «KASB TA'LIMI (IQTISODIYOT)» TA'LIM YO'NALISHI
TALABALARI UCHUN

«KASB TA'LIMI O'QITISH
METODIKASI.O'QITUVCHI NUTQ
MADANIYATI»
FANIDAN KURS ISHINI BAJARISH BO'YICHA

USLUBIY QO'LLANMA

NAMANGAN - 2012

Ushbu uslubiy qo'llanmada 5140900 - «Kasb ta'limi (iqtisodiyot)» ta'lim yo'nalishi talabalari uchun “Kasb ta'limi uslubiyoti.O'qituvchi nutq madaniyati” fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Tuzuvchilar: SH.Jo'rayev

Taqrizchilar: i.f.n., dots. N.Sotvoldiyev

i.f.n., dots. I.Sirojiddinov
NamMPI “Buxgalteriya hisobi va
audit” kafedrasida dotsenti

Ushbu uslubiy ko'rsatma «Iqtisodiyot» kafedrasining 2012 yil “___”
_____dagi ___ - sonli yig'ilishida muhokama etilgan va chop etish uchun
tavsiya etilgan.

Bayonnoma № _____

Uslubiy ko'rsatma NamDU Ilmiy-uslubiy kengashining 2012 yil “___”
_____dagi ___ - sonli yig'ilishida muhokama etilgan va chop etishga
ruxsat berilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islox qilish, barkamol avlodni yetkazish to'g'risida»gi Farmoni (08.10.1997 yil), «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni xayotga tatbiq etish - davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu dasturiy xujjatlarda kadrlarning mamlakatimizni iqtisodiy ravnaq topishini ta'minlashda xal qiluvchi rol o'ynashi xisobga olingan.

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baxolaydigan, xar qanday xolatda xam turli va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat an'anaviy uslublariga tayanib dars o'tish yetarli emas. Bu esa ta'lim tizimida jaxon tajribasidan keng foydalanishni talab etadi. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu soxadagi isloxlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sir asrorlarini o'rganishga bo'lgan xarakatni kuchaytirdi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali xo'jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan iqtisodchilar tayyorlashnigina emas, balki ularni o'qitadigan iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashni xam talab qiladi.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o'zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini xosil qilishdir.

Ma'lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar o'z navbatida ishchi kuchiga xam aloxida talablar qo'yadi. Ya'ni, ishchilar malakali, maxoratli, talabning o'zgarishiga moslashuvchan, o'z malakasini oshirishga intiluvchan bo'lishi talab etiladi. Ishchi kuchiga bo'lgan talablarni talabalar chuqur idrok etishlari, mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, taxlil qilishga, oqilona xulosa chiqarishga o'rganishlari lozim.

"Kasb ta'limi uslubiyoti.O'qituvchi nutq madaniyati" fani bo'yicha bajariladigan kurs ishi talabalarda mazkur fan bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi.

" Kasb ta'limi uslubiyoti.O'qituvchi nutq madaniyati " fani bo'yicha kurs ishi 5140900 - "Kasb ta'limi (Iqtisodiyot)" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 21.10.2010 yilda tasdiqlangan BD 5140947 namunaviy dasturga mos ravishda tashkil etiladi va bajariladi.

Kurs ishini bajarish kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlardan yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalar kurs ishini mazkur fanning katta qismini o'zlashtirgandan keyingina bajaradilar. Kurs ishining maksadi "Kasb ta'limi uslubiyoti.O'qituvchi nutq madaniyati" fani bo'yicha talabalarni nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va chukurlashtirish, qaror qabul qilishda turli xil shakl, uslublarni ishlatish qobiliyatini oshirish hisoblanadi.

Talaba kurs ishini bajarish jarayonida maxsus adabiyotlar, qonunlar, me'yoriy hujjatlar, statistik to'plamlardan foydalanishni o'rganadi, turli xil hisob-kitoblarni bajarish va ma'lumotlarni qayta ishlashni turli xil usullarini ko'llay olishga erishadi va ular asosida tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kurs ishini yozish talabani umumnazariy va maxsus bilimlarini mustahkamlaydi va uni himoya qilishga tayyorlaydi.

Kurs ishini bajarish quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Kurs ishi mavzusi tanlash;
2. Mavzuga oid manbalarni yig'ish;
3. Kurs ishining rejasini tuzish;
4. O'qituvchi bilan ishlab chiqilgan reja, tuzilma va yig'ilgan axborot materiallar bo'yicha kelishish;

5. Kurs ishiga belgilangan talablarga mos ravishda ishlov berish;
6. Kurs ishi himoyasiga tayyorlash va himoya qilish.

KURS ISHINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Kurs ishining maqsadi «Kasb ta'limi o'qitish uslubiyoti.O'qituvchi nutq madaniyati» fanidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, talabalar tomonidan yosh avlodni tarbiyalashda iqtisodiy fanlarni o'qitishni samaradorligini oshirish, noan'anaviy dars o'tish usullaridan foydalanishni o'rganishdan iborat. Kurs ishini bajarishda talabalar o'quv jarayonida bevosita olgan nazariy bilimlarini va pedagogik amaliyoti davrida yig'ilgan ma'lumotlarni asos qilib olishlari kerak. Ba'zi bir xollarda, kurs ishi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan umumlashgan ma'lumotlar asosida ham bajarilishi mumkin.

Kurs ishi talabalarining kasb ta'limi uslubiyoti.o'qituvchi nutq madaniyati fanidan olgan bilimlarini chuqurlashtirishga, amaliyotni nazariy asoslar bilan bog'lashga va tahliliy fikr uslubiyotini rivojlantirishga yordam beradi.

KURS ISHINI BAJARISH UCHUN TALABALAR QUYIDAGI TALABLARGA AMAL QILISHLARI KERAK

1. Iqtisodiy islohotlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, hukumat tomonidan qabul qilingan qaror va nizomlarni o'rganib chiqish.
2. Tanlab olingan kurs ishi mavzusi bo'yicha kerakli adabiyotlarni tanlab olish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib chiqish.
3. Yosh avlodni tarbiyalashda ta'lim usullari, zamonaviy tashkiliy shakllari, o'quv dasturlari,talabalar bilimini baholashni, kasb hunar muassasalarida boshqaruv qarorlarini baholash. Buning uchun, talabalar qo'yilgan savollarga chuqur tahliliy va kritik yondashib javob berishlari kerak.

Mazkur kurs ishini bajarilishi quyida keltirilgan iqtisodchi o'qituvchilarga qo'yilgan talablarga muvofiq kelishi lozim:

1. Yuksak maqsadlarni qo'ya bilish, sog'lom hayot tarzini olib borish, yaxshi jismoniy sog'likka ega bo'lish, doimiy ravishda o'z ustida ishlab borish, o'z fikrlarini aniq va maqsadga intiluvchan bo'lishi, did bilan kiyinish.
2. Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda ta'lim texnologiyalarini tuzish, ishchi dasturlar ishlab chiqish, o'z fikrlarni og'zaki va yozma ifoda qila olish.
3. Barcha ta'lim muassasalarida, korxona, tashkilotlarda samarali mehnat faoliyatini tashkil eta olish.
4. Noaniqlik sharoitida bo'layotgan jarayonni tahlil qila olish, iqtisodiy baho berish va qaror qabul qilish.
5. Kasb etikasi, muomala madaniyati, jahon standartlari darajasidagi texnika-texnologiyalar sohasida bilim va ko'nikmalarni hosil qila olish.

TAKLIF ETILAYOTGAN KURS ISHI MAVZULARI VA KURS ISHINI BAJARISH TARTIBI

Kurs ishi mavzusi va ish ob'ekti bo'lib talabalar malakaviy amaliyot o'tadigan korxonalarning ishlab chiqarish bo'linmasi va boshqaruv apparati bo'lishi mumkin. Kurs ishi

tegishli adabiyotlarda berilgan rivojlangan davlatlarning ilg'or korxonalarining batafsil keng ma'lumotlari asosida ham bajarilishi mumkin. Talabalar tomonidan tanlab olingan mavzu tegishli topshiriq bilan biriktirilib, kurs ishi rahbari tomonidan imzolanadi (1-ilovaga qarang).

KURS ISHI OB'EKTI SIFATIDA TAKLIF ETILAYOTGAN MAVZULAR RO'YXATI

1. Iqtisodiy inqiroz sharoitida O'zbekiston respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasb-hunar kollejlari kichik mutaxasislarni tayyorlashning maqsad va vazifalari.
2. Vatanimiz taraqqiyotining poydevori va uning kelajagi yosh mutaxasisni tarbiyalashda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning nutq texnikasi va madaniyati.
3. O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'limi rivojlanishi.
4. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining o'rniga ahamiyati.
5. Vatanimiz taraqqiyotini mustahkamlashda yoshlarda kasbga bo'lgan motivatsiyani shakllantirishda O'rta asr mutafakkir olimlarining shaxs timsoli haqidagi qarashlari.
6. Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevorining asosi bo'lgan kichik mutaxasislarni kasbiy tayyorlashga qo'yiladigan talablar va asosiy yondashuvlar.
7. Ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish yo'llarida kasb-hunar ta'limi tamoyillari.
8. Yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishda kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari
9. Barkamol avlodni shakllantirishda o'qitish texnologiyalarini tanlash
10. Ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish yo'llarida kasb-hunar ta'limida innovatsion jarayonlar
11. Yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etish va iqtidorli yoshlarni ilmiy ishlarga faol jalb etish uchun sharoitlar yaratishda kasb ta'limida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish
12. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida mutaxasislar tayyorlashda sifatga e'tiborni kuchaytirish talabi ilgari surilayotgan sharoitda kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda bitiruv malakaviy ishlari
13. Yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etish va iqtidorli yoshlarni ilmiy ishlarga faol jalb etish uchun sharoitlar yaratishda darsdan hamda o'quv muassasasidan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkillashtirish
14. Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni kasbga o'rgatish ularda kasbiy mahorat va ko'nikmalarni hosil qilishda kasb ta'limi muassasasini boshqarish
15. Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirishda O'zbekistonda kasbiy ta'lim marketingining shakllanishi
16. Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni kasbga o'rgatish ularda kasbiy mahorat va ko'nikmalarni hosil qilishda pedagogik muomala madaniyati.
17. Vatanimiz taraqqiyotining poydevori va uning kelajagi yosh mutaxasisni tarbiyalashda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning pedagogik amaliyoti.
18. Kasb ta'limi jarayonida turli pedagogik uslublarni qo'llash.
19. Iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
20. Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirishda O'zbekiston kasb-hunar ta'limida uslubiy uyushmalar faoliyatini tashkil qilish.
21. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kasbiy ta'lim bozorining vujudga kelish omillari.
22. Iqtisodiy inqiroz sharoitida raqobatbardosh kichik mutaxasislarni kasbiy tayyorlashga qo'yiladigan talablarni aniqlovchi ijtimoiy iqtisodiy omillar.

KURS ISHINI BAJARISH TARTIBI

Kurs ishini bajarish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Kurs ishi mavzusini tanlash;

2. Mavzuga oid bibliografiya, me'yoriy qonuniy xujjatlar, qoidalar, yo'riqnomalar va dalolatnomalarni yig'ish;
3. Kurs ishi rejasini tuzish;
4. Rahbar bilan ishlab chiqilgan reja, tuzilma va yig'ilgan axborot materiallar bo'yicha kelishish;
5. Kurs ishiga belgilangan talablarga mos ravishda ishlov berish;
6. Kurs ishi himoyasiga tayyorlanish.

Kurs ishi mavzusini tanlash. Kurs ishini sifatli va muvaffaqiyatli bajarishda mavzuni talaba tomonidan mustaqil ravishda va to'g'ri tanlashi muhim rol o'ynaydi. SHu maqsadda talabalar kurs ishi mavzusini "Kasb ta'limi uslubiyoti.O'qituvchi nutq madaniyati" kursining asosiy qismini o'zlashtirib bo'lgandan so'ng tanlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mavzuni tanlash Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida ishlab chiqilgan hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2010 yil 18 iyulda tasdiqlangan va BD 5340200 raqam bilan ro'yxatga olingan "Kasb ta'limi uslubiyoti.O'qituvchi nutq madaniyati" fanidan namunaviy dastur asosida tayyorlangan kurs ishi mavzularining ro'yxati bo'yicha amalga oshiriladi.

SHuni xam aytib o'tish lozimki, mavzu tanlashda talabalar universitetda nazariy bilim olish jarayonida kasb ta'limi uslubiyoti, iqtisodiy bilimlarni o'qitish uslubiyoti fanlari bo'yicha yozgan mustaqil ishlari, ilmiy konferentsiyalarda qilgan ma'ruzalari hamda kelajakda yoziladigan bitiruv malakaviy ishi mavzusiga uyg'unlashgan holda tanlashlari maqsadga muvofiqdir. CHunki bu asosda tanlangan mavzu bo'yicha ish bajarishda talabaning bilim va malakasi chuqurlashib borishi bilan birga uni bitiruv malakaviy ishini bajarishga tayyorlab boradi. Bu o'z navbatida kurs ishini sifatli va muvaffaqiyatli bajarishga asos bo'ladi.

Talabalarga kafedra tomonidan taklif etilayotgan kurs ishi mavzulari ularning shaxsiy qiziqishlariga va moyilligiga to'g'ri kelmasa, u holda ular o'z qiziqishlari doirasidagi tanlangan mavzularini asoslagan holda taqdim etishlari mumkin. U holda taklif etayotgan mavzuni qat'iy ravishda ilmiy rahbar bilan kelishib olish zarur bo'ladi.

Mavzuga oid manbalarni yig'ish va o'rganish. Kurs ishini yuqori darajada sifatli bajarish ko'p jihatdan respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlarni tanlash hamda ularni chuqur o'rganishga bog'liqdir.

Foydalaniladigan adabiyotlarni tanlash va o'rganish tanlangan mavzu bo'yicha bo'lishi lozim. Bu jarayon talaba tomonidan ijobiy yondashgan xolda mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Adabiyotlarni tanlash va o'rganishni kurs ishi mavzusi tanlangan kundan boshlamoq zarur. Bunda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar, iqtisodiy qonunlar, hukumat qarorlari, yo'riqnomalari, taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan chop etilgan ilmiy asarlarga chuqur e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

NamDU axborot-resurs markazida, shuningdek, Nodira nomidagi viloyat kutubxonasida mavjud bo'lgan kataloglardan foydalangan holda kurs ishi mavzusi bo'yicha adabiy manbalar doirasini kengaytirish mumkin bo'ladi.

Kurs ishini sifatli bajarishda mavzuga ta'alluqli O'zbekiston Respublikasining qonuniy hujjatlari va hukumat qarorlari hamda respublika va viloyatning statistik ma'lumotlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Kurs ishi rejasini tuzish. Reja mavzuning mohiyati va mazmunini yoritishdagi fikrlarning ketma-ketligini o'zida mujassamlashtiruvchi va umumlashtiruvchi qisqa yozma matni hisoblanadi. Kurs ishi rejasi mavzuni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish mazmunidan kelib chiqqan holda ikki turda oddiy va murakkab reja shaklida tuziladi.

Oddiy reja asosiy qismdan iborat bo'lgan bir necha ketma-ket, umumiy mantiqiy bog'lanuvchi punktlardan tashkil topgan bo'lib, mavzuni nazariy jihatdan tadqiq qilishda tuziladi.

Murakkab reja tadqiq etilayotgan mavzu mazmunini muayyanlashtiradigan va bo'laklarga ajratilgan qismchalardan, mantiqiy birlikni tashkil etuvchi bo'limlardan iborat bo'lib, mavzuni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilishda tuziladi.

Kurs ishini bajarishda mavzu bo'yicha ko'riladigan masalalar tuzilgan rejaga mos kelishi va qo'yilgan masalani to'la yoritishiga alohida e'tibor bermoq kerak. Mavzuning mohiyatini to'la

ochib berish uchun kurs ishi aniq tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak. Kurs ishi mavzusi bo'yicha taxminiy reja namunalari 1-ilovada keltirilgan.

Kurs ishi tuzilishi (strukturasi)ning optimal ko'rinishi bir-birini mazmunan va mantiqan davom ettiruvchi quyidagi qismlardan tashkil topgan: kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kurs ishini quyidagi bo'limlar bo'yicha tayyorlash taklif qilinadi:

- ❖ Kirish
- ❖ Asosiy qism (4-5 savollardan iborat).
- ❖ Xulosa
- ❖ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ❖ Ilovalar.

Yuqorida ko'rsatilgan kurs ishi bo'limlari quyidagilarni o'z ichida qamrab olishi kerak:

Kirish. Bu qism hajmiga ko'ra uncha katta bo'lmagan, tanlangan mavzuning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini asoslovchi qisqacha bayonnomani o'z ichida mujassamlashtiradi. Unda mavzu bo'yicha maqsadlar shakllantiriladi va vazifalar belgilanadi.

Asosiy qism. Bu bo'limda tanlangan mavzuning asosiy mohiyati va mavzuning mazmunini yoritib beruvchi savollarga faqatgina nazariy nuqtai nazardan emas, balki korxonaning joriy holatining tahlili, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari, ilg'or korxonalar tajribalari va boshqalarni o'z ichiga qamrab olishi lozim.

Kurs ishi mavzusining nazariy va iqtisodiy tavsifi, mavzuga tegishli O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, yetuk iqtisodiy olimlarning iqtisodiy qarashlari, uni bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishdagi roli, o'rni, mohiyati, xususiyatlari, zarurligi va vazifalariga keng to'xtalib o'tiladi. Mazkur bo'limda korxona va tarmoq bo'yicha solishtirma xisob kitoblar, taxlillar yoritiladi. Iqtisodiy qonunlarning mohiyati va ularni ishlab chiqarish korxonalari qo'ygan talablari ochib beriladi.

Xulosa. Bu bo'limda yuqorida qayd etilgan asosiy qism bo'yicha qilingan tahlillar asosida xulosa va kiritilgan tadbirlar bo'yicha olingan iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarining natijalari qayd etiladi, shuningdek hal etilmagan va kelgusida hal etilishi talab etiladigan masalalar bo'yicha takliflar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Bu ro'yxat bibliografik talablar asosida keltirilishi kerak. Agarda, adabiyotdan olingan fikr yoki statistik ma'lumotlar biror-bir manbadan olingan bo'lsa, tushuntirish haqidagi ro'yxatda keltirilgan ketma-ketlik raqami orqali ko'rsatib o'tilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati quyidagi tartib asosida tuziladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;
3. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari;
4. Me'yoriy hujjatlar va ko'rsatmalar;
5. Davriy nashrlarda chop etilgan kitoblar va ilmiy maqolalar.

Manbalarning bibliografik qaydida quyidagilar ko'rsatiladi: muallifning ismi va sharifi, kitob nomi, chop etilgan manzilgohi, nashriyot nomi va chop etilgan yili. Agar maqola jurnal (gazeta)da chop etilgan bo'lsa, jurnal (gazeta) nomi, tartib raqami va yili, beti keltiriladi.

Ilovalar. Kurs ishini bajarish uchun asos bo'lib xizmat qilgan me'yoriy statistik ma'lumotlar majmuasini ko'rsatib o'tish lozim.

Kurs ishida tahlil qilinayotgan ma'lumotlarni yanada ishonchliroq va mantiqiy ifodalash maqsadida turli xil diagramma, chizma, jadvallarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH

Kurs ishi oliy o'quv yurtlarida fanlardan yoziladigan kurs ishini bajarishga qo'yiladigan talablari darajasida yozilishi va tartibga solinishi lozim.

Mazkur fan bo'yicha kurs ishi quyidagi talablar asosida rasmiylashtirib, tushuntirish xati bilan biriktiriladi.

Kurs ishining tushuntirish qismi 30-40 bet hajmda A-4 formatli oq qog'ozga yuqori tomonidan 1,5 sm, pastki tomonidan 2,0 sm, chap tomonidan 3,0 sm va o'ng tomonidan 1,5 sm o'lchamda hoshiyaga olinib, qo'lyozma tarzida yoziladi. Kurs ishiga tegishli grafiklar, diagrammalar, jadvallar o'qish uchun qulay tarzda joylashtiriladi.

Kurs ishining matni aniq, tushunarli va yuqori savodxonlik darajasida orfografik va sintetik xatolarsiz yoziladi. Kurs ishi sodda, aniq va tushunarli qilib yozilishi – uning yuqori darajada bajarilishi belgilaridan biri xisoblanadi.

Kurs ishini bajarish jarayonida so'zlar va terminlarni qisqartirilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Turli mualliflarning fikrlari, ilmiy adabiyotlardan olingan ta'riflar va manbalar qo'shtirnoq ichiga olinib, mazkur adabiyot yoki manbaning muallifi, nomi, nashri, chop etilgan yili va beti yozilayotgan sahifaning pastki qismida ko'rsatib qo'yilishi zarur. Korxona ma'lumotlarini aks ettiruvchi hujjatlar va iqtisodiy ma'lumotlar kurs ishining ilova qismiga o'tkaziladi, matnda esa qaysi raqamli ilovaga qarash kerakligi ko'rsatib o'tiladi.

Kurs ishida matn sahifalari, jadval va grafiklar, sxema va ilovalarning barchasi ketma-ket tarzda tartib raqamlariga ega bo'lishi lozim. Tartib raqamlari bir varaqdan ikkinchi varaqqa o'tadigan va 3-betdan boshlanishi lozim bo'ladi. Chunki birinchi va ikkinchi varaqlar – bu titul varag'i va ish rejasi bo'lib, ular nomerlanmaydi. Varaq tartib raqami pastki qismiga o'rtadan yoki o'ng tomonga qo'yiladi.

Kurs ishi quyidagilardan:

1. Titul varag'i (3-ilovaga qarang);
2. Har bir bo'lim, savol varag'i tartib raqami ko'rsatilgan ish rejasi;
3. Kirish, tartib raqami qo'yilmaydi;
4. Manbalarga havolalar keltirilgan bo'limlar va savollarga bo'lingan matn ifodasi;
5. Xulosa, tartib raqami qo'yilmaydi;
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
7. Jadval, diagramma, grafik, rasm va sxemalardan iborat ilovadan tashkil topadi (Ilovalar qat'iy ketma-ketlikda tikiladi).

Talaba kurs ishining muallifi sifatida unda keltirilgan ma'lumotlar va fikrlarning to'g'riligiga to'liq mas'ul bo'ladi. Kurs ishini bajarishga qo'yilgan talablarlarga javob bermaydigan ishlar qabul qilinmaydi va himoyaga qo'yilmaydi.

KURS ISHINI TOPSHIRISH VA HIMOYA QILISH TARTIBI

Kurs ishini yozish tugatilgandan so'ng, u to'la-to'kis rahbarga tekshirish uchun topshiriladi. Rahbar uni to'la ko'rib chiqqandan so'ng kamchiliklarni ko'rsatib, qo'shimcha ishlash yoki uni oxirgi variant ko'rinishida tayyorlash mumkinligini aytadi.

Kurs ishi to'la yozib bo'lingandan so'ng u kitob shakliga keltiriladi hamda taqrizga beriladi (4-ilovaga qarang).

Kurs ishini himoya qilish muddati o'quv jarayonida jadvali asosida belgilanadi.

Kurs ishi himoyasi kafedra tomonidan tashkil etilgan hay'at tomonidan amalga oshiriladi va baholanadi.

Kurs ishi himoyasida talaba aniq va ravshan ravishda uni mazmunini yoritib bergan holda berilgan savol va masalalarga javob berishi lozim.

KURS ISHINI BAHOLASH

Kurs ishi 100 balli tizimda quyidagicha baholanadi:

86 – 100 ball – “a'lo”

71 – 85 ball – “yaxshi”

56 – 70 ball – “o'rta”

55 balldan past – “qoniqarsiz”.

Bunda quyidagi shartli ravishdagi ko'rsatkich va baholash mezonlari qo'llanilishi mumkin:

Baholash ko'rsatkichlari	Baholash mezonlari
1. Kurs ishi mavzusining yangiligi (maksimal baho – 15 ball)	- muammo va mavzuning dolzarbligi; - muammoning qo'yilishi, yangililigi va mustaqilliligi, muammo tahlili uchun tanlangan yangi jihatlarining shakllantirilishi; - muallifning mavqeini mavjudligi, mulohaza yuritishdagi mustaqilligi
2. Muammo mohiyatining ochib berish darajasi (maksimal baho – 20 ball)	- kurs ishi rejasining mavzuga mosligi; - mavzu mazmunining kurs ishi mavzusi va rejasiga mos kelishi; - muammo va asosiy tushunchalarning to'liqligi va ochib berish doirasi; - materiallar bilan ishlash uslub va usullari asoslanganligi; - adabiyotlar bilan ishlash mahorati, materiallarni tizimlash va tartiblashtirish; - qarab chiqilayotgan masala bo'yicha har xil qarashlarni umumlashtirish, solishtirish bo'yicha ko'nikma, asosiy mulohaza va xulosalarni dalillash
3. Manbalarni tanlashni asoslanganligi (maksimal baho – 15 ball)	- muammo bo'yicha adabiy manbalar doirasida, ulardan foydalanishning to'liq darajasi; - muammo bo'yicha eng yangi manbani jalb etish (jurnallardan chop etilgan, ilmiy ishlar to'plamlari va boshqalar)
4. Rasmiylashtirish qoidalariga amal qilish (maksimal baho – 10 ball)	- foydanilgan adabiyotlarga to'g'ri xavola qo'yish; - ifoda to'g'riligi va madaniyati; - muammo atamalari va tushunchalar apparatidan samarali foydalanish; - kurs ishi hajmiga qat'iy rioya qilish; - rasmiylashtirish madaniyati: xat boshilarini ajratish.
5. Ravonlik, savodlilik (maksimal baho – 10 ball)	- orfografik va sintaktik xatolar bo'lmasligi, stilistik tafovutlar yo'qligi; - xatoliklar, qisqartirilgan so'zlar, (umumiy qabul qilinganidan tashqari) bo'lmasligi; - adabiy tarz.
6. Kurs ishi himoyasi (maksimal baho – 30 ball)	- mavzuning tanlanishi va uning dolzarbligini asoslash; - himoya (ma'ruza) qilishi; - savollarga javoblari; - kurs ishiga taqriz.

KURS ISHI MAVZUSI BO'YICHA TAXMINIY REJA NAMUNALARI

Mavzu: Uzlüksiz ta'lim tizimida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining o'rni va ahamiyati.

Reja:

Kirish

I bo'lim. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim islohatlari, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish shart-sharoitlari.

- 1.1. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati va ahamiyati
- 1.2. Uzlüksiz ta'limning bosqichlari va uni standartlashtirish
- 1.3. Uzlüksiz ta'limda kasb-hunar kollejarini tashkil etish va rivojlantirish shart-sharoitlari

II bo'lim. O'zbekistonda uzluksiz kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirishning istiqbolli rejalari.

- 2.1. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limida ta'lim mazmuni
- 2.2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sifatini oshirish va nazorat qilish yo'llari
- 2.3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va tarmoq standartlarini ishlab chiqish rejalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

«TASDIQLAYMAN»
«Iqtisodiyot» kafedra mudiri
_____ dots. N.Sotvoldiyev

KURS ISHIGA BERILGAN VAZIFA

Mavzu: _____

Asosiy ko'rsatmalar: _____

Ish rejasi: _____
1. _____ 2. _____

_____ 3. _____

_____ 4. _____

_____ 5. _____

Qabul qildim: _____ guruh talabasi _____

Rahbar: _____

Muddati « ____ » _____ 2013 yil

3-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«IJTIMOIY-IQTISODIY» FAKULTETI

«IQTISODIYOT» KAFEDRASI

**“KASB TA’LIMI USLUBIYOTI.O’QITUVCHI NUTQ MADANIYATI”
FANI BO’YICHA TAYYORLANGAN**

K U R S I S H I

Mavzu: _____

BAJARDI: _____guruh talabasi

QABUL QILDI: _____

HAY’AT A’ZOLARI: _____

NAMANGAN – 2013

_____ fakulteti _____ ta'lim yo'nalishi _____
 talabasi _____ ning "Kasb ta'limi
 uslubiyoti.O'qituvchi nutq madaniyati" fanidan bajarilgan kurs ishiga

TAQRIZ

Kurs ishi mavzusi: _____

Kurs ishi rejasi _____

Kurs ishi mazmuni: _____

Grafik ma'lumot: _____

Kurs ishining kamchiliklari: _____

Xulosa _____

Tekshirdi:

_____ (tekshiruvchining ismi va familiyasi)

_____ (imzo)

«__» _____ 2013 yil